



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нируфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содиқова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зоҳидов Азаматджон Аъзамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

SOTSIOLOGIYA

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari..... 4

Jurayeva Sh.S. Globallashuv sharoitida migratsion munosabatlarning oilalar barqarorligiga psixologik ta'siri..... 14

OILA VA JAMIYAT

Nurullayeva U.N. Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'rvonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo'llari 22

Kurbanov E.E. Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi 34

Tashkenbayeva D.B. Turmush o'rtog'i nogiron yoki ruhiy kasal bo'lgan ayollar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar..... 44

PSIXOLOGIYA

Abdusamatov X.U., Sharapova D.B. Uy bekasi sindromining oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar 53

Odilbekov M.M. Turmush o'rtog'i vafot etgan ayollar bilan psixologik ishlash mexanizmlari..... 65

Abduraxmonova F.A. Turmush o'rtog'i bedarak yo'qolgan ayollar bilan ishlash bo'yicha psixologik tavsiyalar 74

Sa'dullayeva J.I. Turmush o'rtog'i jazo muddatini o'tash muassasasidagi ayollar bilan ishlashda psixologik tavsiyalar 84

MAHALLA VA OILA HUQUQI

Alimov S.K. Mamlakatimizda tazyiq va zo'rvonlik holatlaridan jabrlangan ayollarga yordam berish tizimining huquqiy tahlili..... 92

PEDAGOGIKA

Yakubov O. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari 99



Kurbanov Eldar Ermamatovich,
*GulDU, Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Yoshlar bilan ishlash
bo'yicha dekan o'rinbosari, mustaqil izlanuvchi*

YANGI O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING NAZARIY-SIYOSIY EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasida 2016-yildan keyin yuz berayotgan katta o'zgarishlar, davlat boshqaruv jarayonidagi "milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasi natijasi tahlil qilingan. Bundan tashqari, xalq hokimiyati tamoyili Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilanganining konseptual asoslari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье анализируются основные изменения, произошедшие в Республике Узбекистан после 2016 года, результат реализации концепции «от национального возрождения к национальному подъему» в процессе государственного управления. Кроме того, выделены концептуальные основы определения принципа народной власти в качестве приоритетной задачи политики Нового Узбекистана.*

Annotation. *The article analyzes the main changes that have taken place in the Republic of Uzbekistan after 2016, the result of the implementation of the concept of "from national renaissance to national rise" in the process of public administration. In addition, the conceptual foundations for determining the principle of people's power as a priority task of the policy of New Uzbekistan are highlighted.*

Tayanch so'zlar: *Yangi O'zbekiston, strategiya, jamiyat taraqqiyoti, siyosiy yangilanish, qonun ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi, saylov dominantligi, model.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, стратегия, развитие общества, политическое обновление, верховенство закона, народная власть, электоральное доминирование, модель.*

Keywords: *New Uzbekistan, strategy, social development, political renewal, rule of law, people's power, electoral dominance, model.*

Kirish. Ma'lumki, davlat siyosati har qanday jamiyat hayoti, undagi o'zgarishlar, siyosiy yangilanishlar, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi jarayonlarni bevosita boshqarish, tartibga solish va strategik yo'naltirishda, rivojlantirishda eng asosiy vosita va institutsional hodisa bo'lib xizmat qiladi.

Shu boisdan ham davlat siyosatida yangilanish ro'y berishi ayni paytda mamlakat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida siyosiy yangilanishlar amalga oshirilishiga sabab bo'ladi.

Demak, har qanday davlatning o'ziga xos xususiyatlari u tomonidan olib boriladigan siyosatning shakllanishi va amalga oshirilish xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Bunda davlat bir paytning o'zida davlat siyosati hayotga joriy qilinishining ham manbai, ham asosiy subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Rossiyalik mutaxassis olim E.Strelets yozganidek, "Har qanday sharoitda ham davlat siyosati nihoyatda katta hajmdagi aniq maqsad va vazifalarga hamda natijalarga yo'naltirilgan boshqaruv sohasidagi loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi muhim hodisadir. Bunda davlatning faolligi va hukumatning barcha vositalarni safarbar qila olish layoqati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi"¹.

Shuning uchun ham davlat siyosati o'z mohiyatiga ko'ra, davlat boshqaruvidan keng tushunchadir. Rossiyalik olim V.Yakunin xulosasiga qaraganda, davlat siyosati o'z mazmun-mohiyatiga qarab "jamiyat taraqqiyotining eng yetakchi asoslarini, yo'nalishlarini belgilaydi, taraqqiyot loyihasining manbalari, resurslarini ham aniqlab beradi"².

Shu bilan birga tahlillar ko'rsatganidek, rivojlanish va yangilanishga yo'naltirilgan siyosiy g'oyalar, o'z o'rnida, davlat siyosatining yaqin, o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategik resurslari, dasturlarini o'z konseptual bazasiga qamrab olgan holda ro'yobga chiqishiga zamin tayyorlab beradi.

Jahon taraqqiyotining eng zamonaviy tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrda davlat siyosatining samaradorligi yetakchi ravishda uning demokratik mexanizmlarini doimiy ravishda yangilab, to'ldirib, zamonaviylashtirib turilishiga bog'liqdir.

Ushbu holat, o'z navbatida, demokratik davlat siyosatining quyidagi jihatlarda namoyon bo'lishini dolzarb qilib qo'yadi:

Jahon taraqqiyotining eng zamonaviy tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrda davlat siyosatining samaradorligi yetakchi ravishda uning demokratik mexanizmlarini doimiy ravishda yangilab, to'ldirib, zamonaviylashtirib turilishiga bog'liqdir.

¹ Стрелец Е.М. Государственная политика как механизм формирования долгосрочных стратегий современного государства//Вестник государственного и муниципального управления. – №3, 2016. – С. 53.

² Якунин В.И. Формирования государственной политики в современной России. – Москва, 2006. – С. 56.

“Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi”.

Birinchidan, demokratiya institutlarini izchil qo‘llab-quvvatlash, takomillashtirishga yo‘naltirilgan strategiyani amalga oshirish.

Ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirishga qaratilgan islohotlar ko‘lami va sifatini oshirib borish.

Uchinchidan, rivojlanish maqsadlari va dasturlarini amalga oshirishda demokratiya, inson manfaatlari, ehtiyojlari hamda erkinliklarining ta‘minlanishiga xizmat qiluvchi siyosiy infratuzilmani shakllantirib, kengaytirib borish.

To‘rtinchidan, davlat siyosatini ishlab chiqishda samarali demokratiya institutlarini shakllantirish va ularning jamiyat bilan hamkorligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Beshinchidan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini demokratik rivojlanish manfaatlaridan kelib chiqib, takomillashtirib borish hamda ushbu yo‘nalishda natijadorlikni ta‘minlash³.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi”⁴, – degan g‘oyasi yangi davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. Bu bilan yurtimizda davlat siyosati demokratiyani qaror toptirishdek muhim strategik maqsadlar tomon to‘liq safarbar qilina boshlandi.

Ushbu jarayonda yillar davomida to‘planib qolgan bir qator kamchiliklar va o‘tkir muammolarni bartaraf qilish, jumladan, inson manfaatlarini e‘tiborga olmaslik, davlat boshqaruvida ochiqlik siyosatiga e‘tiborning susayishi, fuqarolar fikri va muammolariga nisbatan e‘tiborsizlik kundalik normaga aylana boshlangani, huquq-tartibot organlari tomonidan qilingan adolatsizlik kabi noinsoniy munosabatlarning tez-tez ro‘y berib turgani, davlat boshqaruvida davlat organlari bilan byurokratik va sun‘iy to‘siqlarning mavjudligi kabi holatlarga barham berila boshlandi.

Eng muhimi, mamlakatimiz yangi davlat siyosatida qonun ustuvorligi, demokratiyaning muhim asosi bo‘lgan izchil konstitutsiyaviylikni amalda va jamiyat hayotining har bir jabhasida ro‘yobga chiqarish vazifalari ustuvor qilib belgilandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu xususda, jumladan, quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edi: “Xalq hokimiyatchiligi haqidagi konstitutsiyaviy tamoyilning asl mohiyatini barchamiz chuqur anglab yetishimiz zarur.

³ Muallif talqini

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 8.

Buning uchun turli darajadagi ijro hokimiyati organlarining xalq vakillari – parlament va mahalliy kengashlar oldida hisobot berish amaliyotini keng joriy qilish kerak. Parlament, vakillik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada rivojlantirishimiz zarur”⁵.

Davlatimiz rahbarining mazkur g‘oyasi amalda mamlakatimizdagi zamonaviy davlat siyosatining yetakchi qoidalarini tashkil etdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi til kabi milliy ma‘naviyatni rivojlantirish masalasi edi. Shu sababli ham O‘zbekistonning demokratik jarayonlarga siyosiy rivoj berishi “demokratiyani joriy etishga majburlash emas”⁶, aksincha, tadrijiy ravishda milliy qadriyatlarni tiklash, xalqlar, millatlar orasida huquqiy va siyosiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan edi.

Bunda qonun ustuvorligi prinsiplarini samarali va kafolatli tarzda ro‘yobga chiqarish, unda shaffoflik, ochiqlikni amalda ta‘minlash, kuchli va demokratik mohiyatga ega bo‘lgan mamlakatimiz konstitutsiyasida fuqarolar uchun kafolatlab qo‘yilgan demokratiya normalarining real hayotga tatbiq qilinishiga erishish, demokratik siyosat va demokratik qonunlar ijodkorligi hamda ularni jamiyat hayotining ustuvor asosiga aylantirish muhim vazifa, asosiy qoida sifatida belgilab olindi.

Tahlillardan ma‘lumki, har qanday davlat siyosatining fundamental asosi, birinchi navbatda, qabul qilingan qonunlar davlat siyosati zahirida va uning huquqiy manbai sifatidagi funksiyalarning yuqori darajada bajarilayotgani bilan chambarchas bog‘liq.

Chunki davlat siyosatining samaradorligi uning falsafiy, konseptual, strategik asoslari demokratik huquqiy maydonda o‘zaro hamkorlikda amal qilishiga qarab namoyon bo‘ladi.

Ushbu fikrlar doirasida so‘zimizni davom ettirgan holda aytish lozimki, mamlakatimizda davlat siyosatining huquqiy asoslari va amal qilish mexanizmlarining rivojlantirilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevralda qabul qilingan “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz Prezidentining “Harakatlar strategiyasini qabul qilish to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida belgilab berilgan strategik maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha eng birinchi siyosiy hujjat bo‘lgan mazkur qarorda davlat

Buning uchun turli darajadagi ijro hokimiyati organlarining xalq vakillari – parlament va mahalliy kengashlar oldida hisobot berish amaliyotini keng joriy qilish kerak. Parlament, vakillik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada rivojlantirishimiz zarur”.

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiyot ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent, 2018.

⁶ Курбанов Э.Э. Построение демократического общества: опора на национальные и духовные основы // Молодой учёный. 2015. – №13 (93) – С. 574–576. <https://moluch.ru/archive/93/20896/>

Sir emaski, mustaqil taraqqiyotimiz tarixida shunday paytlar bo‘ldiki, unda davlat siyosatidagi ko‘plab qarorlar hayotda o‘zining aksini to‘liq topa olmadi. Natijada esa rasmiy siyosiy xulosalar, nuqtayi nazarlar bilan real hayotdagi holat o‘rtasidagi farqlar vujudga keldi.

siyosati va qonunlar izchil bog‘liqlikda amal qilishining eng zamonaviy demokratik mexanizmlari tasvirlab berildi.

Xususan, qarorda “davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirishning huquqiy asoslarini rivojlantirish va takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, sud-huquq tizimini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, shuningdek, mamlakatda qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish”⁷ vazifalari qat’iy ravishda belgilab qo‘yildi.

Shu bois fikr bildirib o‘tish o‘rinli bo‘ladiki, davlat siyosati o‘z ichiga demokratik qonunlarni qamrab oladi, shu bilan birgalikda, mazkur qonunlarning davlat siyosatida amal qiladigan siyosiy g‘oyalar va qarorlarning amalga oshirish jarayonlariga nisbatan to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘ta muhim ahamiyat kasb etib boradi va amalda davlat siyosatini turli xil xatoliklar va adolatsizliklardan himoya qiladi.

Nazarimizda, davlat siyosatini amalga oshirishdagi demokratik qonun ustuvorligi bevosita mazkur holatda o‘zining mukammal aksini topadi.

Sir emaski, mustaqil taraqqiyotimiz tarixida shunday paytlar bo‘ldiki, unda davlat siyosatidagi ko‘plab qarorlar hayotda o‘zining aksini to‘liq topa olmadi. Natijada esa rasmiy siyosiy xulosalar, nuqtayi nazarlar bilan real hayotdagi holat o‘rtasidagi farqlar vujudga keldi.

Mazkur muammolarni bartaraf qilish uchun Yangi O‘zbekistonni shakllantirish davrining davlat siyosati prinsiplariga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan quyidagi qoidalarni kiritish g‘oyasi ilgari surildi: “2017-yil va undan keyingi davrga belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchta eng muhim talabga hal etuvchi darajada bog‘liqdir.

Birinchi – davlat rahbari – Prezidentdan boshlab barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning yakuniy natijalar uchun shaxsiy javobgarligi.

Ikkinchi – hamma sohada aniq tarkib va qattiq intizomni ta’minlashimiz darkor. Yana bir bor ta’kidlayman, ishni birgalikda bajaramiz, natija uchun esa har birimiz shaxsan javob beramiz.

Uchinchi – talab – saflarimiz va kadrlarimizning sofligini ta’minlash, ishdagi har qanday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlarning ildizini quritish”⁸.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Xalq so‘zi, 2017-yil 9-fevral. – № 29 (6723)

⁸ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 290-291.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan belgilab berilgan mazkur prinsiplar yurtimizda zamonaviy davlat siyosatining ishlab chiqilishi va davlatchilikni amalga oshirishda muhim mezon sifatida belgilandi. Shu orqali davlat siyosatining demokratik mohiyati yanada kuchaytirildi. Buning sababi jamiyatda demokratiya va uning qadriyatlari rivojlanishi uchun davlat siyosati g'oyalarning ijro etilishida yuksak mas'uliyat bo'lishi doimo talab etiladi.

Yangi demokratik O'zbekistonni barpo qilishga yo'naltirilgan davlat siyosatida demokratiya institutlarini kuchli rivojlantirish hamda yangilarini shakllantirish vazifalariga ustuvor ravishda yondashilmoqda.

Bir necha yil oldin fraksiyalar muhokamasidan o'tmasdan, ularning xulosasini olmasdan birorta ham qonun, davlat byudjeti loyihasi qabul qilinmasligi qonuniy asosda aniq belgilab qo'yilgan edi.

Tan olish kerak, o'tgan davr mobaynida parlamentda ana shu qoidani hayotga tatbiq etish bo'yicha ko'p ishlar qilindi.

Biroq fraksiyalarda qonun loyihalari va boshqa muhim masalalar muhokamasini, konstruktiv bahs va munozaralarni yanada kuchaytirishni hayotning o'zi taqazo etmoqda.

Qabul qilinayotgan har bir qonun loyihasi saylovchilar, partiya elektorati, turli tabaqa va guruhlarning manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, atroflicha muhokama qilinishi, fraksiyalar ushbu masalalarda prinsipial pozitsiyasini namoyon etishi shart"⁹.

Ushbu g'oyalardan aniq ravishda sezilmoqdaki, mamlakatimizda demokratiyaning eng ilg'or jahon mamlakatlari tomonidan e'tirof qilingan "plyuralistik" modelining samarali asoslarini joriy qilishga ham muhim e'tibor berilmoqda va bu bilan yurtimizda demokratiya institutlarini takomillashtirish bilan bir paytning o'zida davlat siyosatida demokratiyaning eng zalvorli va tamomila zamonaviy qoidalarini joriy qilish jarayonlari harakatga keltirilmoqda.

Jumladan, vakillik demokratiyasining asosiy instituti bo'lgan mamlakatimiz Oliy Majlisi har ikkala palatasining amal qilish qoidalariga doir huquqiy asoslarni yanada takomillashtirib, xususan, 2002-yilning 12-dekabrida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuniga 2016-yilda O'RQ-44-sonli qonun bilan bir marotaba O'RQ-459-sonli qonun tahririda, 2018-yilda O'RQ-459-sonli qonun asosida bir marotaba, 2019-yilda tegishli qonunlar asosida 2020-yilda bir marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi¹⁰.

⁹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B. 571.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy bazasi // 10.08.2020 й., 03/20/631/1153-сон

Yangi demokratik O'zbekistonni barpo qilishga yo'naltirilgan davlat siyosatida demokratiya institutlarini kuchli rivojlantirish hamda yangilarini shakllantirish vazifalariga ustuvor ravishda yondashilmoqda.

“Partiya bu – shunchaki, oddiygina umumiylik emas, balki umumiyliklarning yig‘indisidir”.

Shu bilan birga, 2002-yilning 12-dekabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonuniga 2017–2021-yillar davomida muhim o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, mazkur huquqiy hujjatning 4, 8, 9, 10, 12, 14, 16, 18, 20, 31, 32-moddalariga kiritilgan muhim o‘zgartish va qo‘shimchalar¹¹ Oliy Majlis yuqori palatasining hududiy vakillikni amalga oshirish borasidagi demokratik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Siyosiy partiyalar insoniyat tarixida uzoq davrlardan buyon fuqarolarning demokratik siyosiy erkinliklarini qo‘lga kiritish, vakillik hokimiyatini shakllantirishda bevosita ishtirok etish, inson manfaatlarini va haq-huquqlarini tashkiliy-siyosiy tuzilma sifatida himoya qilish vositasi, omili bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Siyosiy partiyalar haqidagi eng chuqur ilmiy-nazariy g‘oyalarning mualliflaridan biri bo‘lgan fransiyalik mashhur olim Moris Dyuverje o‘z asarida: “Partiya bu – shunchaki, oddiygina umumiylik emas, balki umumiyliklarning yig‘indisidir”¹², – degan muhim fikrlarni bildirib o‘tgan edi.

Yurtimizda zamonaviy davlat siyosatini yaratish va amalga oshirish jarayonlari boshlanishi bilan demokratiyaning amal qilishi va rivojlanishi uchun yetakchi ravishda xizmat qilishi lozim bo‘lgan siyosiy partiyalar faoliyati, tashkiliy tuzilmalari va umuman, institut sifatidagi xususiyatlarini tamomila yangilash bo‘yicha strategik choralar amalga oshirila boshladi. Bunday yondashuv uchun, albatta, obyektiv sabablar bor edi.

Birinchidan, mamlakatimiz partiyaviy tizimi faoliyatida yurtimiz taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichida demokratik siyosiy partiyalar maqomiga to‘la javob bera olmaydigan holatlar namoyon bo‘la boshladi. Bunda siyosiy partiya bilan uning tarafdorlari o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikda uzilishlar kuzatiladi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz siyosiy partiyalari o‘z dasturlari va ularni amalga oshirish jarayonida yurtimiz taraqqiyotining zamonaviy ehtiyojlari, dolzarb strategik maqsadlariga nisbatan hamohanglik, tashabbuskorlik kabilar, afsuski, kuchayib bormadi.

Buning natijasida odamlarning siyosiy partiyalarga bo‘lgan ishonchi ham, siyosatning obyekt sifatidagi munosabatlari ham ancha susayib ketgan edi.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy bazasi // 15.01.2021 й., 03/21/666/0032-сон

¹² Дюверже М. Политические партии. Пер. с франц. изд. 3-е. – Москва: «Академический Проект», 2005. – С. 58.

Uchinchidan, siyosiy partiyalarning siyosiy hokimiyat faoliyatida ishtiroki borasidagi erkin, qonuniy hamda yuqori siyosiy madaniyat darajasidagi raqobati tashkil qilinishi borasida ham kamchilik, nuqson va xatoliklar mavjud edi.

Mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasida jamiyatimizda amalda bo‘lgan siyosiy partiyalar faoliyatiga baho berilib, muhim konstruktiv va yangi g‘oyalar ilgari surilgan edi. Xususan, yurtboshimiz aytganidek: “Bugungi kunda siyosiy partiyalar o‘z elektoratiga bergan va’ dalarini, saylovoldi dasturlarini to‘la va samarali bajarmoqda, deb ayta olmaymiz. Ular hanuzgacha mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida, fuqarolar ongida o‘zining mustahkam o‘rnini egallay olmadi.

Siyosiy partiyalar va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatida partiya fraksiyalari tomonidan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq taklif va tashabbuslar deyarli sezilmayapti”¹³.

Mamlakatimizda yangi davlat siyosatining strategik chora-tadbirlari tizimida siyosiy partiyalar va ularning demokratik jarayonlar ishtirokchisi sifatidagi mavqeyi va o‘rnini har tomonlama rivojlantirish, ularning demokratiya instituti sifatidagi imkoniyatlarini kuchli darajada kengaytirilishiga e’tibor qaratila boshlandi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuniga 2018, 2019, 2020 va 2021-yillar davomida kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar¹⁴ siyosiy partiyalar faoliyat tartibi, siyosiy-huquqiy normativ asoslarining zamonaviylashuvida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ma’lumki, saylov instituti davlat siyosatining amalga oshirilishida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki demokratik saylov tizimi amal qilishi orqali siyosiy hokimiyatning qonuniyligi, jamiyat tomonidan beriladigan demokratik ishonch va e’tirofga asoslanadi. Buning natijasida, mamlakat miqyosida davlat siyosati amal qilishiga bevosita daxldor bo‘lgan barcha institutlarning, birinchi navbatda, davlat institutining legitimligi saylov huquqi va uni amalga oshirilishi tufayli ta’minlanadi.

Y.Niskevich yozganidek, “ko‘pchilik zamonaviy davlatlarda hokimiyatning ratsional-normativ legitimlashuvida saylov dominantlik qiluvchi institut sifatida xizmat qilmoqda”¹⁵.

Bugungi kunda siyosiy partiyalar o‘z elektoratiga bergan va’ dalarini, saylovoldi dasturlarini to‘la va samarali bajarmoqda, deb ayta olmaymiz. Ular hanuzgacha mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida, fuqarolar ongida o‘zining mustahkam o‘rnini egallay olmadi.

¹³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 542.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy bazasi. 21.04.2021 й., 03/21/683/03-75-сон

¹⁵ Нискевич Ю. Институт выборов как механизм легитимации публичной власти// Мировая экономика и международные отношения. 2018. – № 2. – С.63.

Tahlillardan yaqqol namoyon bo‘lmoqdaki, ratsional-normativ legitimlik asosi va bunda yetakchi ravishda demokratiya prinsiplarining saylov jarayonida izchil qo‘llanilishi yoki saylovlarning demokratik bazasi yuqoriligi ta’minlanadi.

Mashhur olim F.Fukuyamaning eng nomdor politologik asarida aytib o‘tilganidek, “zamonaviy dunyoda hokimiyatning yagona legitim manbai bu demokratiyadir”¹⁶.

Davlatimiz siyosatida demokratiyaning tayanch asosini o‘zida mujassam etuvchi saylov institutining huquqiy-normativ, siyosiy-konseptual asoslarini chuqur yangilash, uning demokratiyani olg‘a yo‘naltiruvchi mexanizmlarini yanada zamonaviylashtirish, imkoniyatlar ko‘lamini keskin oshirish, rivojlantirishga jiddiy va yangi yondashuvlar zamirida ahamiyat qaratildi.

Bunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning bevosita siyosiy g‘oyalari va demokratik islohotlarni rivojlantirish uchun uning barcha tarkibiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy qarorlari asosida qabul qilingan va mamlakatimizda demokratik saylovni tashkil qilish hamda o‘tkazish jarayonlarini tamomila yangilashga xizmat qiluvchi Saylov kodeksi 2019-yilning 25-iyunidan kuchga kirishi muhim siyosiy voqelik bo‘ldi.

*“Zamonaviy
dunyoda
hokimiyatning
yagona legitim
manbai bu
demokratiyadir”.*

Xulosa. Xulosa o‘rnida quyidagilarni ta’kidlash mumkin: dunyo mamlakatlarining demokratik taraqqiyot bo‘yicha tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatning eng asosiy instituti bo‘lmish davlat o‘z siyosatida natijadorlikka, avvalo, davr talablariga monand hamda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi samarali demokratik institutlarni yangi mexanizmlar bilan muntazam ravishda yangilab va takomillashtirib borish orqali erishish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ayniqsa, so‘nggi besh yil mobaynida mamlakatimizda davlat siyosatining demokratik asoslari har jabhada izchil yangilanib bormoqda. Bu borada jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish, davlat siyosatining shakllanishi va amalga oshirilishida jamoatchilik tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish, demokratik institutlarning faoliyatini tashkil qilish tamoyillarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan muhim qadamlar tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bilan yurtimizda boshlangan zamonaviy davlatchilik siyosatini amalga oshirish jarayonlari demokratiyaning amal qilishi va rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim bo‘lgan jamoat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalarning institutsional salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

¹⁶ Қаранг: Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. – Москва: АСТ, 2007. – С. 144.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Стрелец Е.М. Государственная политика как механизм формирования долгосрочных стратегий современного государства // Вестник государственного и муниципального управления. 2016. – №3.
2. Якунин В.И. Формирования государственной политики в современной России. – Москва, 2006.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, tamlakatimizni yanada taraqqiyot ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent, 2018.
5. Курбанов Э.Э. Построение демократического общества: опора на национальные и духовные основы // Молодой учёный. 2015. – №13 (93) <https://moluch.ru/archive/93/20896/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil 9-fevral. – №29 (6723)
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
8. O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy bazasi
9. Дюверже М. Политические партии. Пер. с франц. изд. 3-е. – Москва: «Академический Проект», 2005.
10. Нискевич Ю. Институт выборов как механизм легитимации публичной власти// Мировая экономика и международные отношения. 2018. – №2.
11. Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. – Москва: АСТ, 2007

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materialari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.